

ZAMONAVIY MA'RUZALARNING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI.*MRDI instituti**Libos dizayni kafedrası o'qituvchisi****Ma'suda Irgasheva****Dizayin1987@mail.ru*

Annotatsiya: Maqolada, ma'lumotlar va axborotlarni ma'ruza shaklida uzatish, Oliy ta'lim tizimida o'qitish uslublaridan biri bo'lib, tinglovchilarning bilim darajalari, malakasi, tayanch ma'lumotlari va yoshiga, ayrim hollarda jinsiga ham bog'liq jarayon ekanligi ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: pedagog, shaxsiy yondashuv, multimedia, innovatsion ta'lim, rivojlanish, zamonaviy tasviriy san'at.

Kirish. Ta'lim jarayoni sifati ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari, ta'lim jarayoniga jalb qilingan professoro'qituvchilar ilmiy salohiyati, ta'lim oluvchilar salohiyati, ta'lim berish jarayoni texnik vositalari, ta'lim texnologiyalari, ta'lim jarayonini boshqarishning sifat darajasi kabi omillar bilan ta'minlanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va Internetning ta'lim sohasiga keng kirib kelishi ta'lim xizmatlarining globallasuvi uchun ham katta yo'l ochmoqda. Rivojlangan davlatlar ta'lim sohasida bo'layotgan bunday ijobiy jihatlarni e'tiborga olgan holda ta'lim sifatini yuksaltirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ommaviy ravishda keng foydalanish davr talabaga aylanib bormoqda.

Oliy ta'limda o'qitishning tashkiliy formasi deb ta'lim jarayonida o'quvchi bilan o'qituvchining turli variantlardagi o'zaro pedagogik muloqati tushuniladi. Ma'lumki, oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonining tashkiliy formasi ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, talabalarning mustaqil ishlari va turli amaliyotlardan tashkil topgan. Har qanday tashkiliy forma ta'lim maqsadi, mazmuni va boshqa elementlarni o'z ichiga olgan ta'lim modelini aniqlaydi. Ta'limning tashkiliy formasi ta'lim modelining mohiyatini ochib beradi. Ta'lim modeli va tashkiliy forma o'rtasidagi bunday simmetrik bog'lanish professor-o'qituvchiga o'zining kasbiy muhitida ko'plab tendensiyalarni farqlashga hamda o'z faoliyatida ta'lim jarayonini qanday tashkil etishni to'g'ri tanlashga yordam beradi. Hozirgi zamonaviy ta'lim jarayonida ta'lim modeli va tashkiliy formasi o'rtasidagi bunday bog'lanishni ko'rsatuvchi ko'plab misollarni keltirish mumkin. Masalan, yuqori sur'atda rivojlanayotgan ochiq masofaviy ta'lim boshqa ta'lim modellarida uchramaydigan yangi, jumladan virtual t'yutorial, sinxron videokonferensiya kabilarni o'z ichiga olgan tashkiliy shakllarni yuzaga keltirdi. Lekin, oliy ta'lim tashkiliy

shakllarining tashkil etuvchi elementlari nomi qanday yangi shakl olmasin, baribir asosiy elementlar bo'lib ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, seminarlar, mustaqil ishlar va amaliyotlar bo'lib qolmoqda va bular ichida ma'ruza talabalarni nazariy bilim olishlarida, amaliy ko'nikmalar hamda malakalarini shakllantirishlarida muhim o'rin tutmoqda. Ma'ruzalarning turli ko'rinishlardagi shakllari ta'lim jarayonida o'ziga xos yo'nalish kasb etib, talabada bilishning an'anaviy mantiqiy ketma-ketligini (qabul qilish, tushunish, uqish, fikrlash, qayta ishlash, mustahkamlash) hosil bo'lishiga olib keladi. SHu sababli, oliy ta'limda o'qiladigan ma'ruzalarning sifati ta'lim sifatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib qolmoqda.

Ma'ruza, nutq, taqdimot (prezentatsiya) – aniq mavzu bo'yicha ma'lumotni taqdim etishning umum qabul qilingan usuli hisoblanadi. Ma'ruzada tizimiy ravishda, ma'lum ketma-ketlik asosida nazariy xarakterdagi materiallar o'qituvchi (ma'ruzachi) tomonidan tinglovchilar e'tiboriga etkaziladi. Ko'pgina ko'rsatkichlar bo'yicha "Ma'lumotni uzatish, etkazish" eng qiyin uslublardan biri hisoblanadi. Ma'lumotlar va axborotlarni ma'ruza shaklida uzatish, Oliy ta'lim tizimida o'qitish uslublaridan biri bo'lib, tinglovchilarning bilim darajalari, malakasi, tayanch ma'lumotlari va yoshiga, ayrim hollarda jinsiga ham bog'liq jarayon hisoblanadi. Ma'ruza (lotin tilida lectio-o'qish)- biror bir ilmiy, siyosiy mavzu bo'yicha o'quv materialini og'zaki bayon etish. Ma'ruza – aniq mavzu bo'yicha ma'lumotlarni ma'ruzachi (bir kishi) tomonidan tinglovchilar guruhiga bir tekisda etkazish usuli hisoblanadi. Odatda ma'ruzada tinglovchilar auditoriyasi nafaol qabul qiluvchi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Aslida, ta'lim tizimida zamonaviy ma'ruzaning haqiqiy o'rni qanday? Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanishi, demokratik va huquqiy davlatning rivojlanishi keng umummadaniyatli dunyoqarashni, kadrlar malakasini qayta tayyorlashni, zamon talablari ruhida o'zini takomillashtirib borishini talab etadi. Mana shunday sharoitda ta'lim muassasalarida ma'ruza mashg'ulotlarini o'rni qanday bo'lmog'i lozim? An'anaviy usuldagi ma'ruzalar yoshlarimiz ehtiyojini qondiradimi? Hozirgi kunda ta'lim berish uslubi sifatida ma'ruzalarga qarama-qarshi holda video va kinotexnika, televidenie, multimedia vositalari, bahs va munozaralar, suhbat, anjumanlar, "aylanma stol", og'zaki jurnal, rolli o'yinlar va shu kabi o'nlab interaktiv uslublar qo'llanmoqda. Ma'ruza o'qiyotgan pedagog talabalarga "jonli" ("jivoe") bilimni etkazadi, ya'ni u mavzu bo'yicha axborot yoki ma'lumot bermaydi, u olim, o'z sohasini egasi, targ'ibot qiluvchi notiq va auditoriyani to'liq his qiluvchi tarbiyachi sifatida chiqish qiladi. Aytish lozimki, hozirgi zamonaviy axborot va kommunikatsion vositalar ma'ruza o'rnini bosa olmaydi, fanning ilmiy va tarbiyaviy xususiyatlarini, auditoriya holatini, bilishning psixologik qonuniyatlarini, tinglovchi tomonidan eshitilgan ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlarini, tinglovchining dunyoqarashini,

hissiyotini va e'tiqodini yangi axborot texnologiyalari imkoniyatlari bir vaqtda hisobga ola olmaydi.

Xulosa qilib aytganda talaba hozirgi axborotlar makonida zarur va kerakli ma'lumotlarni mustaqil ola olmaydi, u adashishi mumkin, ma'ruza unga yo'l ko'rsatadi. Lekin, ma'ruza eski an'anaviy usulda mavzu materiallarni "o'qib berish" bo'lib qolmasligi kerak. Zamonaviy ma'ruza avvalgi o'qitishning "nafaol" usulidan "faol" usuliga o'tmog'i, bahs, munozara, suhbat, muhokama shaklida amaliy ishlarning uyg'unligi, ya'ni interaktiv usullarda tashkil etilmog'i lozim. Shu sababli hozirgi vaqtdagi ko'plab innovatsion uslublar o'qitishning interaktiv uslublarini qo'llash bilan bog'liqdir.

Adabiyotlar.

1. Makhamadnazimovna, I. M. (2024). ISSUES OF THE IMPACT OF ECO-FASHION DEVELOPMENT ON THE SOCIAL AND ECONOMIC ENVIRONMENT. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 17(2), 77-81.
2. ABDULLAYEVA, F., UMAROVA, Z., & RASHIDOV, A. (2024). ZAMONAVIY MODA TENDENSIYALARINING SOHA DOIRASIDAGI TA'LIM JARAYONLARI MODERNIZATSIYASIDAGI AKTUALLIGI. *News of UzMU journal*, 1(1.4. 1), 49-52.
3. Rashidov, A. Z. (2022). MODA FENOMENI: TARIXI VA RIVOJIGA DOIR AKTUAL TAMOYILLAR. *PEREKRYOSTOK KULTURBI*, 4(3).
4. Yunusxodjaeva, S. A. (2019). Yosh rassomni o'qitishda samarali usullardan foydalanish. *PEREKRYOSTOK KULTURBI*, 1(4).
5. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, PEDAGOGIK KOMPETENTLIK: NAZARIYA VA AMALIYOT, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, Gulmira Rifovna Tojiboeva
6. Zaripova, M. A. (2020). MODEL YARATISHNING ISHLAB CHIQRISH MUNOSABATLARIDA ISHTIROKI. *PEREKRYOSTOK KULTURBI*, 2(4).
7. Jabborova, O. M., & Umarova, Z. A. (2021). "TARBIYA" FANINI KLASSTER USULIDA O'QITISHDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISH.
8. Komilova X. X., Vohidova U. A. "Loyihalash", OO'Yu uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent : Fan va texnologiya.
9. http://vtk34.narod.ru/petruk_osnovimodelirodejdi/book/book12.htm
10. https://studref.com/638080/kulturologiya/ispolzovanie_tsveta_kollektsi
10. Umarova, G. E. (2024). DIZAYNERNING PROFESSIONAL FAOLIYATIDA NAZARIY VA USLUBIY YONDASHUVLAR. *Luchshie intellektualnye issledovaniya*, 17(2), 137-140.